



“2% Keshbek bilan Yangi Yil kreditini oling” Yangi Yil dasturini o`tkazish qoidalari – Yangi Yil Kampaniyasi

MUNDARIJA

1. Umumiy shartlar;
2. Atama va ta`riflar;
3. Dastur tashkilotchisi;
4. Dasturda ishtirok etish tartibi;
5. Pul mukofotini taqdim etish tartibi;
6. Ishtirokchilar huquqlari va majburiyatlari;
7. Bank huquq va majburiyatlari;
8. Javobgarlik;
9. Nizolarni hal etish tartibi;
10. Boshqa shartlar.

1. UMUMIY SHARTLAR.

1.1. Mazkur “TBC Bank” ATB Yangi Yil dasturining Qoidalari (keyingi o`rinlarda “Bank” deb ataladi) – “Yangi Yil Kampaniyasi” (keyingi o`rinlarda “Dastur”) Bank Mijozlarining Dasturda ishtirok etish shartlarini va tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Dastur Qoidalari lotereya emas yoki Dasturda ishtirok etish bilan bog`liq holda, Dastur ishtirokchilari uchun mol-mulk xavfini yuzaga keltiruvchi tavakkalchilik asosida yaratilgan o`yin emas. Dasturni o`tkazish tartib-taomili ishtirokchilar tomonidan biror-bir to`lovni kiritishi bilan bog`liq emas.

1.3. Ushbu Qoidalar O`zbekiston Respublikasi Fuqarolar Kodeksining 367-moddasiga va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq chaqirib olinmaydigan ommaviy oferta deb hisoblanadi. Qoidalar Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan - www.tbcbank.uz.

1.4. Dasturning boshlanish sanasi: 2021 yil 13 dekabr; Dasturning tugash sanasi: 2022 yil 14 yanvar, shu jumladan. Dastur amal qilish muddati: 2021 yil 13 dekabr dan 2022 yil 14 yanvar, shu jumladan.

1.5. Dastur o`tkazish joyi: O`zbekiston Respublikasi hududi.

1.6 1.4-bandda ko`rsatilgan muddat ichida quyidagi harakatlardan birini muvaffaqiyat bilan bajargan Mijoz Dastur ishtirokchisi bo`lishi mumkin:

1.6.1. Dasturning boshlanish sanasida joriy kreditga ega bo`lmagan holda yangi Kreditga ega bo`lish;

1.6.2. Dasturning boshlanish sanasida joriy olingan kreditga yangi Kreditni qo`shish.

1.7 Bank xizmatlaridan va mahsulotlaridan, shu jumladan onlayn mikroqarzdand (kreditdan) foydalanish, olish tartibi va shartlari Bank rasmiy web-saytida joylashtirilgan yoki Bankning mobil ilovalari orqali tanishib chiqish uchun taqdim etilgan Bankning Bosh Shartlari (keyingi o`rinlarda “BSh” deb ataladi) bilan va Bankning mahsulot shartnomalari bilan belgilangan.

2. ATAMA VA TA'RIFLAR

Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki.
Dastur	“TBC Bank” ATBning Yangi Yil dasturi – “Yangi Yil Kampaniyasi”
Bankning Mijozi	Bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs
Ishtirokchi	Dastur ishtirokchisi sifatida mazkur Qoidalarning shartlariga muvofiq kelgan Bankning mijozi.

Ilova	AppStore va Playmarket platformalarida ishlovchi qurilma-smartfonlarda foydalanish mumkin bo`lgan TBC UZ mobil ilovasi.
Kredit	Bank mahsuloti. Onlayn Mikroqarz Shartnomasiga muvofiq Bank mijoziga Bank tomonidan taqdim etiladigan onlayn mikroqarz.
Qo`shimcha kredit	Joriy kredit qiymatini oshirish bo`yicha Bank xizmati.
Keshbek	Mazkur Qoidalarga muvofiq tartibda, shartlar bilan va belgilangan hajmda pul mablag`larining bir qismini qaytarish orqali Ishtirokchiga to`langan pul miqdori.

3. DASTUR TASHKILOTCHISI.

- 3.1. Dastur tashkilotchisi - Bank.
- 3.2. Bankning rekvizitlari: 100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur shoh ko`chasi, 118/1-uy. Telefon: +99878 777 2727. Pochta: contact@tcbank.uz

4. DASTURDA ISHTIROK ETISH TARTIBI.

- 4.1. Ishtirokchiga aylanish uchun Bankning Mijozlari ushbu Qoidaning 1.6-bandida belgilangan shartlarga rioya etishi zarur.
- 4.2. Dastur ishtirokchisiga aylanib, Keshbek olish uchun Bankning Mijozlari TBC UZ Ilovasida "Kredit" bo`limida kredit olishi yoki Qo`shimcha kredit olishi (joriy kredit summasini oshirishi) kerak.
- 4.3. Barcha shartlarni bajarganidan keyin Bankning Mijozlari avtomat ravishda Dastur Ishtirokchisi maqomiga ega bo`ladi va Keshbek olish bilan bog`liq harakatlarni amalga oshirishi mumkin.
- 4.4. Bank tomonidan muvaffaqiyat bilan tasdiqlangan Bankning barcha Mijozlari Dastur Ishtirokchisi bo`lishi mumkin, Bank xodimlari va vakillari, ularning oila a`zolari, shuningdek, ularning affillangan shaxslari bundan mustasno.

5. PUL MUKOFOTINI TAQDIM ETISH TARTIBI

- 5.1. Dastur bo`yicha pul mukofoti – Keshbek, agar Bankning Mijozlari yangi Kredit olgan bo`lsa, Keshbek summasi hisoblangan kunda Mijozning asosiy kredit qarzdorligining qoldiq summasidan 2% ni tashkil etadi.
- 5.2. Agar Bankning Mijozlari qo`shimcha kredit olsa, Dastur bo`yicha pul mukofoti, ya`ni Keshbek – Qo`shimcha kredit olish sanasida Keshbek summasini o`tkazishda Mijozning qo`shimcha kredit hisobvarag`idagi qoldig`i hamda joriy kredit hisobvaraqlarining qoldiq summasidagi farqidan 2% ni tashkil etadi.
- 5.3. Keshbek Ishtirokchining joriy hisobvarag`iga yoki karta hisobvarag`iga kredit olingan yoki qo`shilgan kundan keyin besh ish kuni davomida o`tkaziladi. Keshbek pul qiymati – o`zbek So`mi.
- 5.4. Ishtirokchiga 1.4-bandda belgilangan muddat ichida olingan kreditlar sonidan qat`i nazar Keshbek bir martadan ko`p berilmaydi. Keshbek hisob bo`yicha Ishtirokchi tomonidan 1.4-bandda belgilangan muddat ichida birinchi kreditga yoki qo`shimcha kreditga o`tkaziladi.
- 5.5. Ishtirokchi Keshbekni O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan istalgan maqsadlar uchun sarflashi mumkin.
- 5.6. Olingan pul mukofotiga (pul mablag`lari) nisbatan O`zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 369-moddasi, 2-qism, 14-bandiga muvofiq soliqqa tortilmaydi.
- 5.7. Bank har bir Ishtirokchini SMS-xabar yoki mobil ilovada Push-xabar orqali Keshbek to`langanligi haqida xabardor qiladi.

6. ISHTIROKCHILAR HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

- 6.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:
 - Dastur haqida Bank hujjatlari bilan belgilangan tartibda va to`liq hajmda ma`lumotlarni olish;

- Mazkur Qoidalarga muvofiq mukofot puliga ega bo'lish.

6.2. Ishtirokchi ushbu Dastur Qoidalari bilan tanishib chiqishi kerak. Bank Mijozining Dasturda ishtirok etishi avtomat ravishda ushbu Dastur Qoidalari bilan uning tanishib chiqib, to'liq o'z roziligini bildirganini anglatadi.

6.3. Ishtirokchi Kredit yoki Qo'shimcha kredit yordamida olgan mablag'lardan, shuningdek, Keshbekdan faqat shaxsiy maqsadlar uchun foydalanishi kerak.

7. BANK HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

7.1. Bank Dasturni o'tkazishi majbur, shu bilan birga Keshbek ko'rinishida pul mukofotini to'lash bo'yicha majburiyatlarini mazkur Qoidalarga muvofiq bajarishi kerak.

7.2. Ushbu Qoidalar 1.4-bandga muvofiq Dasturning amal qilish muddati davomida Bank tomonidan bekor qilinishi mumkin emas.

7.3. Dastur ishtirokchilarini identifikatsiyalash maqsadida, Bank Dasturni amaldagi qonunchilik normalari doirasida o'tkazish uchun anketlashtirish yordamida mijozlarning shaxsga doir ma'lumotlarini yoki boshqa ma'lumot va hujjatlarini to'playdi.

7.4. Bank Dastur haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni <https://tbcbank.uz/> Internet saytida hamda Bank ofislarida joylashtirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

7.5. Agar Dastur Ishtirokchisi bo'lishni xohlagan yoki Dastur Ishtirokchisi hisoblangan Bank Mijoz tomonidan qonunga hilof ravishda harakatlar amalga oshirilsa yoki firibgarlik harakatlari mavjud bo'lsa va/yoki shubha tug'gan bo'lsa, Bank mazkur Qoidalar shartlarini bajarishni rad etish huquqiga ega.

8. JAVOBGARLIK.

8.1. Dastur Ishtirokchilariga Keshbek to'lash bo'yicha Bank majburiyatlari Ishtirokchining joriy hisobvarag'iga yoki karta hisobvarag'iga Keshbek summasini to'lash vaqtida bajarilgan deb hisoblanadi.

8.2. Bank mazkur Qoidalar amal qilish muddati davomida yuzaga kelgan tizimlardagi texnik nosozliklar, kamchiliklar, xatolar bilan bog'liq ushbu Qoidalarga muvofiq majburiyatlar bajarmaganligi uchun javobgar emas.

8.3. Agar 8.2-bandda ko'rsatilgan vaziyatlar yuzaga kelsa, Bank texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, kamchiliklar va nosozliklarni bartaraf etish sana va muddatini Bank mustaqil ravishda belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.

8.4. Agar uchinchi shaxslarning qasddan va/yoki qasddan bo'lmagan harakatlari sababli Bank ushbu Qoidalarda belgilangan shartlarni bajara olmasa, Bank javobgar emas.

8.5. Mazkur Qoidalar asosida tartibga solinmagan boshqa masalalar Bankning Bosh Shartlari hamda Bank va Bankning Mijoz o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

9. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

9.1. Ushbu Qoidalardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq barcha nizoli masalalar do'stona yo'l bilan maslahat va muzokaralar yordamida hal qilinadi.

9.2. Agar Tomonlar nizo va kelishmovchiliklarni 9.1-bandga muvofiq hal qilishga erisha olmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq hal qilinadi.

10. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Mazkur Qoidalar 13.12.2021 yildan kuchga kiradi va 14.01.2022 yilgacha amal qiladi.